

Излаш



[Toshkent shahrida Inxa Universitetini tashkil etish to'g'risida](#)

[1-ILOVA Toshkent shahridagi Inxa Universiteti muassislari TARKIBI](#)

[2-ILOVA Toshkent shahridagi Inxa universitetining Vasiylik kengashi TARKIBI](#)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 24.03.2014 yildagi PQ-2155-son

Кучга кириш санаси

24.03.2014

Қўшимча ахборот

Улашиш

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING QARORI

### TOSHKENT SHAHRIDA INXA UNIVERSITETINI TASHKIL ETISH TO'G'RSIDA

Xalqaro standartlar darajasidagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashni yanada takomillashtirish, shuningdek ilg'or xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni kengaytirish maqsadida:

1. O'zbekiston Respublikasi Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo'mitasi, Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi va Inxa Universiteti (Koreya Respublikasi)ning Toshkent shahrida Inxa Universitetini tashkil etish to'g'risidagi taklifi qabul qilinsin.

2. Toshkent shahridagi Inxa Universitetining asosiy faoliyat yo'nalishi etib quyidagilar belgilansin:

axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida xalqaro standartlarga mos yuqori malakali mutaxassislarni, birinchi navbatda dasturiy ta'minotni ishlab chiqish, axborot tizimi va kompyuter tarmoqlarini boshqarish bo'yicha mutaxassislarni tayyorlashni ta'minlash;

respublikaning oliy ta'lim tizimiga o'quv jarayonini zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida tashkil etish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribani joriy etish, ochiq axborot-ta'lim muhitining rivojlanishiga ko'maklashish;

respublikada axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida uzluksiz ta'lim va malaka oshirish tizimini shakllantirishga ko'maklashish, ilmiy tadqiqot va ta'lim muassasalari, dasturiy mahsulot ishlab chiquvchilar, ishlab chiqarish korxonalari, sanoat va infratuzilma tarmoqlari hamda boshqa zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari iste'molchilari o'rtasida o'zaro mustahkam hamkorlikni o'rnatish;

iqtisodiyot real sektori tarmoqlarining aniq ehtiyojlarini hisobga olgan holda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlashni nazarda tutuvchi xalqaro standartlarga mos maqsadli ta'lim dasturlarini tashkil etish uchun sharoit yaratish.

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

Universitetda o'quv jarayonini tashkil etish va o'qitish uchun malakali professor-o'qituvchilarni, shu jumladan chet ellik mutaxassislarni jalb etish.

*(2-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-iyuldagi PQ-243-sonli qaroriga asosan xatboshi bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.07.2023-y., 07/23/243/0529-son)*

3. Belgilansinki:

Toshkent shahridagi Inxa Universiteti alohida mulkka, mustaqil balansga ega bo'lgan, o'z majburiyatlari bo'yicha o'z tasarrufidagi pul mablag'lari va mulki bilan javob beruvchi oliy ta'lim muassasasi — yuridik shaxs ko'rinishidagi O'zbekiston Respublikasi rezidenti hisoblanadi;

Toshkent shahridagi Inxa Universiteti notijorat tashkilot sifatida [1-ilovaga](#) muvofiq tarkibdagi ta'sischilar tomonidan tuziladi;

o'quv-uslubiy rahbarlik va ta'lim jarayonini amalga oshirish Inxa Universiteti (Koreya Respublikasi) tomonidan ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari qo'llangan holda tuziladigan bitimlar asosida ta'minlanadi;

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

talabalarni o'qitish ingliz tilida, O'zbekiston Respublikasi davlat ta'lim standartlari talablarini hisobga olgan holda, Inxa Universiteti (Koreya Respublikasi) o'quv rejaları va dasturlariga muvofiq olib boriladi;

*(3-bandning beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-iyuldagi PQ-243-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.07.2023-y., 07/23/243/0529-son)*

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

Universitetning Inxa universiteti (Koreya Respublikasi) ta'lim dasturlari bo'yicha ta'lim olgan bitiruvchilariga belgilangan namunadagi Inxa universiteti (Koreya Respublikasi) diplomini hamda Inxa universiteti (Koreya Respublikasi) bilan kelishilgan holda Universitet tomonidan ishlab chiqilgan ta'lim dasturlari bo'yicha ta'lim olgan bitiruvchilarga O'zbekiston Respublikasida oliy ma'lumot to'g'risidagi hujjat sifatida tan olinadigan belgilangan namunadagi diplom beriladi.

*(3-bandning oltinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-iyuldagi PQ-243-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.07.2023-y., 07/23/243/0529-son)*

Toshkent shahridagi Inxa Universitetiga abituriyentlarni qabul qilish va bitiruvchilarni attestatsiyadan o'tkazish, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan kelishilgan holda, Inxa Universiteti (Koreya Respublikasi) tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

4. Toshkent shahridagi Inxa Universitetining yuqori boshqaruv organi etib [2-ilovaga](#) muvofiq tarkibdagi Vasiylik kengashi belgilansin.

5. O'zbekiston Respublikasi Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo'mitasi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda boshqa manfaatdor tashkilotlar ikki oy muddatda Inxa Universiteti (Koreya Respublikasi) bilan kelishilgan holda belgilangan tartibda Toshkent shahridagi Inxa Universitetining ta'sis hujjatlarini tasdiqlashni, shuningdek davlat ro'yxatidan o'tkazishni ta'minlansin.

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(6-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-iyuldagi PQ-243-sonli qaroriga asosan o'z kuchini yo'qotgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.07.2023-y., 07/23/243/0529-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(7-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-iyuldagi PQ-243-sonli qaroriga asosan o'z kuchini yo'qotgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.07.2023-y., 07/23/243/0529-son)*

8. Belgilansinki:

Toshkent shahridagi Inxa Universiteti uchun binolarni olish va rekonstruksiya qilish, qurish, zarurat bo'lganda yangi binolar qurish, shuningdek binolar, o'quv auditoriyalari, elektron kutubxona, tadqiqot laboratoriyalari va universitetning boshqa inshootlarini zamonaviy o'quv-laboratoriya anjomi, jihoz, mebel, kompyuter va boshqa o'quv texnika vositalari bilan jihozlash xarajatlari ta'sischi va Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg'armasi hisobidan, yetmagan qismi esa Investitsion dasturda nazarda tutilgan markazlashtirilgan kapital qo'yilmalar doirasida ajratiladigan O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobiga;

Toshkent shahridagi Inxa Universitetining joriy faoliyati xarajatlari talabalarni to'lov-kontrakt asosida o'qitish uchun tushadigan mablag'lar, yuridik va jismoniy shaxslarning xayriya ehsonlari, shuningdek, tegishli shartnomalar asosida manfaatdor tashkilotlar tomonidan taqdim etiladigan grantlar va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladi.

9 O'zbekiston Respublikasining Xususiyashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Toshkent shahridagi Inxa Universitetiga baholash qiymati bo'yicha:

Toshkent shahar, Ziyolilar ko'chasi, 9-uy manzilida joylashgan bino va inshootlarni, tutash hudud va muhandislik kommunikatsiyalari bilan birgalikda;

Toshkent shahar, Ziyolilar ko'chasi, 13a-uy manzilida joylashgan tugallanmagan qurilish obyektni, tutash hudud va muhandislik kommunikatsiyalari bilan birgalikda realizatsiya qilsin.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi va Toshkent shahridagi Inxa Universiteti ta'sischi va O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining Asosiy kutubxonasi binosidan birgalikda foydalanish to'g'risidagi taklifi qabul qilinsin.

10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

bir hafta muddatda mazkur qarorning [8-bandida](#) ko'rsatilgan obyektlarni 2014-2015 o'quv yili boshlangunga qadar realizatsiya qilingan binolarni rekonstruksiya qilish va universitetni zamonaviy talablarga muvofiq zarur mebellar, inventarlar, o'quv va laboratoriya anjomlari, kompyuter va boshqa tashkiliy texnika, kutubxona fondi bilan jihozlash ishlarini tugatishni ta'minlash sharti bilan sotishni nazarda tutadigan Toshkent shahridagi Inxa Universitetining faoliyatini tashkil etish va moddiy-texnika bazasini shakllantirish bo'yicha [qaror](#) qabul qilsin;

ikki oy muddatda O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining Asosiy kutubxonasini zamonaviy uskunalar bilan qayta jihozlash va birgalikda foydalanish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, shuningdek unda universitetning elektron kutubxonasini joylashtirishni nazarda tutgan holda modernizatsiya qilish loyihasini ishlab chiqsin va tasdiqlasin.

11. 2019-yilning 1-yanvarigacha:

*Oldingi tahrirga qarang.*

Toshkent shahridagi Inxa Universiteti barcha turdagi soliqlarni to'lashdan va maqsadli davlat jamg'armalariga majburiy ajratmalardan;

*(11-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 4-dekabrda PQ-2270-sonli qarori tahririda — O'R QHT, 2014-y., 50-son, 590-modda)*

Toshkent shahridagi Inxa Universitetini qurish va rekonstruksiya qilish, jihozlash va faoliyatini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan ro'yxat bo'yicha olib kelinadigan O'zbekiston Respublikasida ishlab

Toshkent shahrida Inxa Universitetini tashkil etish to'g'risida

1-ILOVA  
Toshkent shahridagi Inxa Universiteti muassislari TARKIBI

2-ILOVA  
Toshkent shahridagi Inxa universitetining Vasiylik kengashi TARKIBI

chiqilmaydigan asbob-uskuna, kompyuter texnikasi, o'qitishning texnik vositalari, adabiyot, multimediya mahsuloti, qurilish materiallari, inventar va moddiy-texnika resurslari bo'xona to'lovlaridan (bo'xona rasmiylashtiruv yig'imlaridan tashqari) ozod etilsin.

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

12. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi hamda Toshkent shahridagi Inxa Universiteti buyurtmanomali bo'yicha Universitetning ushbu qarorni amalga oshirish doirasida jalb qilinadigan xorijiy professor-o'qituvchilari va ma'muriy xodimlari, shuningdek ularning oila a'zolari uchun kirish vizalarini konsullik va boshqa yig'imlar undirilmadan belgilangan tartibda rasmiylashtirishni ta'minlasin.

*(12-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-noyabrdagi PQ-2651-sonli qarori tahririda — O'R QHT, 2016-y., 46-son, 528-modda)*

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

13. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi hamda Toshkent shahridagi Inxa Universiteti buyurtmanomali bo'yicha Universitetning xorijiy professor-o'qituvchilari va ma'muriy xodimlariga, ularning oila a'zolariga, davlat bojlari to'lashdan ozod etgan holda, ko'p martalik vizalar berilishi va uzaytirilishini, shuningdek O'zbekiston Respublikasida yashash joyi bo'yicha vaqtinchalik ro'yxatdan o'tkazilishini va muddati uzaytirilishini belgilangan tartibda ta'minlasin.

*(13-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-noyabrdagi PQ-2651-sonli qarori tahririda — O'R QHT, 2016-y., 46-son, 528-modda)*

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

14. O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi hamda Toshkent shahridagi Inxa Universiteti buyurtmanomali bo'yicha universitetni tashkil etish va uning faoliyat yuritishida ishtirok etadigan yuqori malakali xorijiy mutaxassislarni O'zbekiston Respublikasiga jalb etilishiga belgilangan tartibda ruxsatnomalar berilishini (muddati uzaytirilishini), shuningdek xorijiy fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi hududida mehnat faoliyati huquqiga tasdiqnomalar berilishini (muddati uzaytirilishini) ta'minlasin.

*(14-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-noyabrdagi PQ-2651-sonli qarori tahririda — O'R QHT, 2016-y., 46-son, 528-modda)*

15. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Sh.M. Mirziyoyev zimmasiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. KARIMOV**

Toshkent sh.,  
2014-yil 24-mart,  
PQ-2155-son

O'zbekiston Respublikasi  
Prezidentining 2014-yil 24-  
martdagi PQ-2155-son qaroriga  
1-ILOVA

### **Toshkent shahridagi Inxa Universiteti muassislari**

#### **TARKIBI**

1. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi
2. "O'zbekneftgaz" MXK
3. "O'zbekenergo" AJ
4. "O'zkimyosanoat" AJ
5. "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" DK
6. "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJ
7. "O'zbekiston havo yo'llari" MAK
8. "O'zbekiston temir yo'llari" AJ
9. "O'zbektelekom" AJ
10. O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

O'zbekiston Respublikasi  
Prezidentining 2014-yil 24-  
martdagi PQ-2155-son qaroriga  
2-ILOVA

### **Toshkent shahridagi Inxa universitetining Vasiylik kengashi**

#### **TARKIBI**

[Toshkent shahrida Inxa  
Universitetini tashkil etish to'g'risida](#)

[1-ILOVA  
Toshkent shahridagi Inxa  
Universiteti muassislari TARKIBI](#)

[2-ILOVA  
Toshkent shahridagi Inxa  
universitetining Vasiylik kengashi  
TARKIBI](#)

- Sh.X. Shermatov — O'zbekiston Respublikasi raqamli texnologiyalar vaziri, *Vasiylik kengashi raisi*
- K.X. Karimov — O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining birinchi o'rinbosari, *Vasiylik kengashi raisi o'rinbosari*
- A.R. Karimov — O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vaziri o'rinbosari
- R.O. Karimjonov — O'zbekiston Respublikasi raqamli texnologiyalar vaziri o'rinbosari
- Sh.Sh. Usmanov — Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish jamg'armasi direktori
- N.N. Xasanov — "O'zbektelekom" AK boshqaruvi raisi
- M.M. Djalalov — Toshkent shahridagi Inxa universiteti rektori, *Vasiylik kengashi kotibi*

Izoh: Vasiylik kengashi a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda ushbu lavozimlarga yangi tayinlangan yoki zimmasiga tegishli vazifalarni bajarish yuklatilgan shaxslar kengash tarkibiga kiritiladi.

(2-ilova matni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-iyuldagi PQ-243-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.07.2023-y., 07/23/243/0529-son)

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

(3-ilova O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-iyuldagi PQ-243-sonli qaroriga asosan o'z kuchini yo'qotgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.07.2023-y., 07/23/243/0529-son)

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

(4-ilova O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-iyuldagi PQ-243-sonli qaroriga asosan o'z kuchini yo'qotgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.07.2023-y., 07/23/243/0529-son)

[Toshkent shahrida Inxa Universitetini tashkil etish to'g'risida](#)

[1-ILOVA Toshkent shahridagi Inxa Universiteti muassislari TARKIBI](#)

[2-ILOVA Toshkent shahridagi Inxa universitetining Vasiylik kengashi TARKIBI](#)